



**AVTOMOBIL TRANSPORTI KORXONALARI RENTABELLIK
KO'RSATKICHLARI TAHLILI**

Ergashev Sherzod Toshpo'latovich

*Avtomobil transporti xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti
mutaxassisi Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Tel: 97 725-44-41. e-mail: lionsher@list.ru

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy tahlilda avtomobil transporti korxonalarida rentabellikning aniqlanishi nafaqat tashqi foydalanuvchilar, balki ichki boshqaruv faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi. Chunki jamiyatda asosiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilot bo'yicha, uning daromadliligi bo'yicha hisob-axborotlari doimo diqqat markazida hisoblanadi. Rentabellik ko'rsatkichlari doimiy ravishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromadini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri ekanligi o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *transport korxonalari, asosiy vositalar, avtomobil transporti, transport logistikasi, transport turlari, aktivlar rentabilligi, iqtisodiy samaradorlik.*

KIRISH

Avtomobil transporti korxonalarida rentabellik qanday hisoblanishi kerak, rentabellikning qaysi turlari hisoblanishi kerak degan savollar doimiy ravishda muhokamalarga sabab bo'ladi. Mazkur mavzu aspektida dunyo hamda o'zbek tadqiqotchilarining fikr va mulohazalari mavjud bo'lib, xususan M. Kalonov tomonidan avtomobil transporti korxonalarida rentabellikning ayrim turlari bo'yicha munosabat bildirilgani, bunda asosiy e'tibor sof foyda o'rniga aynan faoliyat foydasi ko'rsatkichlaridan foydalanishni tavsiya etilgan. Mazkur nazariya asnosida, rentabellik ko'rsatkichlarini amaliy ma'lumotlar bilan boyitgan holda rentabellik ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshirib, o'z mulohazalarimizni berishga harakat qilamiz.

Xorijlik olimlardan I. Shumpeter, Andre Babo va boshqalar rentabellikka keskin ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi 4 ta yo'nalishda deb hisoblaydilar:

1. Yuqori sifatli yangi turdagi tovarlarni ishlab chiqarish va sotish.
2. Yangi bozorlarni qamrab olish.
3. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda innovatsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish.
4. Tashkiliy boshqaruvda yangiliklarni joriy etish.²⁶

Olimlar tomonidan ilgari surilgan yo'nalishlar umumiy bo'lib, ishlab chiqarish korxonalarini asos qilib olingan.

²⁶ Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. – М.: Эксмо, 2007. – 864 с.





M.V. Charayeva o'z ilmiy ishida rentabellikka ta'sir qiluvchi yo'nalishlar sifatida ishlab chiqarish xarakteridagi keskin o'zgarishlar bo'lishi kerakligi, bozor strukturasi ta'siri borligi, umumxo'jalik jarayonlari bilan bog'liqligi, inflyatsiyaning ta'siri borligini ta'kidlaydi.²⁷

Shuni alohida aytishimiz joizki, A.M. Fridman tomonidan sanab o'tilgan rentabellikka ta'sir qiluvchi omillar batafsil yoritilgan bo'lsa-da, faqatgina korxonaga bog'liq bo'lgan ichki omillar berilgan. Korxonaga bog'liq bo'lmagan tashqi omillar hisobga olinmagan. Soliqlarni rejalashtirish orqali ularni optimallashtirish haqida gapirilib, bu korxonaga bog'liq emasligi e'tibordan chetda qolgan.

Iqtisodchi olimlarimizdan, A. O'lmasov va A. Vahobov foydani maksimallashtirish rentabellikni oshirishini ta'kidlab, unga erishish yo'llariga quyidagilarni kiritishadi:

- ishlab chiqarishni restruktizatsiyalash va diversifikatsiyalash;
- resurslarni tejab-tergab ishlatish;
- kapital tarkibini takomillashtirish;
- mehnat motivatsiyasini kuchaytirish.²⁸

A.Vahobov va T. Malikov xo'jalik yurituvchi subyektlarning rentabelligini oshiruvchi omillarni ikki guruhga bo'lishadi:

- foyda summacini ko'paytirish;
- foyda olish uchun xarajatlar darajasini va resurslarni kamaytirish.²⁹

Bizning fikrimizcha, rentabellikni tahlil qilish va uni oshirish bo'yicha boshqaruv qarorini qabul qilish uchun:

- korxonada faoliyati yo'nalishidan kelib chiqib daromad manbalarini turlarga bo'lib olish;
- faoliyat foydasi va umumiy foydani alohida ajratib olish;
- rentabellikka ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar hamda ularning rentabellikka ta'sir darajasini aniqlash;
- rentabellikni aniqlashda albatta tarmoq xususiyatini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada guruhlash, taqqoslash, induksiya, deduktsiya, nazariy va amaliy o'rganish, statistik tahlil, monografik kuzatish, kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Anglashiladiki, sotishdan olingan foydaning tushumga nisbati sifatida aniqlanadigan asosiy faoliyat bo'yicha sotuv rentabelligi (ROS), operatsion xarajatlarning tushumga nisbati sifatida aniqlanadigan mahsulotlar resurs sig'imi ko'rsatkichini (RE), boshqa moliyaviy natijalarning tushumga nisbati sifatida aniqlanadigan boshqa faoliyat rentabelligini (ROS FR) aniqlashni tavsiya etadi (1-jadvalga qarang).

²⁷ Чараяева М.В. Основные направления повышения рентабельности промышленных предприятий в России // Вестник пермского университета. Экономика. 2012. Вып. 4 (15).

²⁸ O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – B.153 – 155

²⁹ Vahobov A., Malikov T. Moliya: Darslik. – Toshkent: Noshir, 2012. – B.232.



1-jadval

Korxonalari tomonidan aniqlanadigan rentabellik ko‘rsatkichlaridan foydalanish yo‘nalishlari³⁰

Rentabellik ko‘rsatkichi	Ko‘rsatkichni aniqlashdan maqsad
Sotish renatabelligi	Korxonalar bozor va operatsion faoliyatiga, ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlarning samaraliligiga va boshqa tomonlariga baho berish
Aktivlar rentabelligi	Aktivlardan foydalanish samaradorligiga, jalb qilingan qarz kapitalining maqsadli ishlatilishiga baho berish
Investitsiya qilingan kapital rentabelligi	Investitsiya qilingan kapitaldan samarali foydalanishni baholash
Xususiy kapital rentabelligi	Korxonaga maqsadli faoliyatini baholash

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, rentabellikning turlari bir qancha bo‘lib, ular korxonaga faoliyatining u yoki bu yo‘nalishiga baho berish maqsadida yoki korxonaning mulkidan samarali foydalanilishiga baho berish maqsadida aniqlanadi.

Shu bois avtomobil transporti korxonalarida ham rentabellikni aniqlash bo‘yicha berilgan taklif va tavsiyalar mana shu maqsad bo‘yicha bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Avtomobil transporti korxonalarida yuqoridagi umumiy talablar qo‘llanilishi bilan birga sohaning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Bu xususida M. Kalonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda rentabellikning bir qancha turlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar shakllantirilgan. Muallif tomonidan faoliyatga aloqasi bo‘lmagan foydani sof foyda tarkibidan chiqargan holda faqatgina faoliyat foydasiga nisbatan rentabellikni aniqlash lozimligi keltirilgan va quyidagicha hisoblash tavsiya qilingan (2-jadvalga qarang).

2.-jadval

Rentabellikni aniqlash tartibi

Ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan rentabellik	Faoliyat foydasi/Ishlab chiqarish xarajatlari
Asosiy vositalar rentabelligi	Faoliyat foydasi/Asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati
Joriy aktivlar rentabelligi	Faoliyat foydasi/Joriy aktivlar o‘rtacha yillik qiymati
O‘z mablag‘lari rentabelligi	Faoliyat foydasi/O‘z mablag‘lari

Muallif tomonidan tavsiya etilgan metodika rentabellikni aynan faoliyat turi bo‘yicha aniqlash imkonini berganligi bois sof rentabellik deb ataladi. Bundan tashqari, jadval

³⁰O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan rentabellik, asosiy vositalar rentabelligi, joriy aktivlar rentabelligi, o'z mablag'lari rentabelligini aniqlash uchun moliyaviy hisobot ma'lumotlarining o'zi yetarli emas. Chunki moliyaviy hisobot ma'lumotlarida faoliyat foydasi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilmaydi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, tavsiya etilgan metodika rentabellikni aynan faoliyat turi bo'yicha aniqlash imkonini berganligi bois sof rentabellik deb ataladi. Bundan tashqari, jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan rentabellik, asosiy vositalar rentabelligi, joriy aktivlar rentabelligi, o'z mablag'lari rentabelligini aniqlash uchun moliyaviy hisobot ma'lumotlarining o'zi yetarli emas. Chunki moliyaviy hisobot ma'lumotlarida faoliyat foydasi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kalonov M.B. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini yuritish masalalari: Monografiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 176 b.
2. Kalonov M. Daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili uslubiyoti (avtotransport korxonalarini misolida). – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 262.
3. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – B.153 – 155
4. ¹ Vahobov A., Malikov T. Moliya: Darslik. – Toshkent: Noshir, 2012. – B.232.
5. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. – М.: Эксмо, 2007. – 864 с.
6. Чараева М.В. Основные направления повышения рентабельности промышленных предприятий в России // Вестник пермского университета. Экономика. 2012. Вып. 4 (15).